

**BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI YO'LIDA O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASIDA IQLIM O'ZGARISHIGA QARSHI KURASHNING HUQUQIY  
MEXANIZMLARI**

**Tursunboyeva Sarvinoz Akramjon qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti

Magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15629129>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish yo'nalishida amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar tahlil qilingan. Xususan, milliy qonunchilikdagi ekologik normalar, iqlim o'zgarishiga moslashish va uni yumshatish bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari yoritiladi. Shuningdek, xalqaro huquqiy hujjatlar bilan uyg'unlashtirilgan milliy strategiyalar, «yashil iqtisodiyot» konsepsiyasi, uglerod chiqindilarini kamaytirish choralari hamda energetika, qishloq xo'jaligi va sanoat sohalaridagi huquqiy mexanizmlar tahlil qilinadi. Maqolada mavjud huquqiy asoslar bilan bir qatorda, ularni takomillashtirish bo'yicha takliflar ham ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** barqaror rivojlanish, iqlim o'zgarishi, ekologik xavfsizlik, huquqiy mexanizmlar, ekologik huquq, iqlim xavfli, Global Climate Risk Index.

**KIRISH.**

*“Iqlim muammolari barqaror rivojlanish yo'lida eng asosiy tahdidga aylanib ulgurdi.<sup>1</sup>”*

**Sh.Mirziyoyev**

So'nggi o'n yilliklarda iqlim o'zgarishi jahon hamjamiyatining eng muhim ekologik, iqtisodiy va huquqiy muammolaridan biriga aylandi. Atmosferaga chiqayotgan issiqxona gazlari miqdorining ortishi, global haroratning ko'tarilishi, tabiiy ofatlarning ko'payishi insoniyat hayotiga va tabiiy tizimlarga bevosita tahdid solmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti 2015-yilda qabul qilgan **Barqaror rivojlanish maqsadlari** tizimida bu muammo alohida e'tiborga olinib, **13-maqсад** – “Iqlim o'zgarishiga qarshi shoshilinch choralar ko'rish” sifatida belgilangan<sup>2</sup>.

Iqlim o'zgarishining salbiy ta'siri O'zbekiston Respublikasida ham tobora kuchayib bormoqda. So'nggi yillarda o'rtacha yillik haroratning ko'tarilishi, yog'ingarchilik miqdorining o'zgaruvchanligi, qurg'oqchilik va yerlarning degradatsiyasi kuzatilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, oxirgi 60 yilda mamlakatda harorat o'rtacha **1,5°C ga oshgan**. Bunday harorat o'zgarishlari qishloq xo'jaligiga, suv resurslariga, odamlar salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, O'zbekiston mintaqaviy darajada eng iqlim xavfli davlatlardan biri hisoblanadi. Global Climate Risk Index 2021 ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston iqlim xavflari bo'yicha **o'rta xavf** toifasiga kiradi. Shu sababli, iqlim o'zgarishiga moslashish va unga qarshi kurashish strategiyasi milliy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi bo'yicha konferensiyasidagi (COP28) nutqi <https://president.uz/oz/lists/view/6897>

<sup>2</sup> (BMT, Barqaror rivojlanish maqsadlari, 2015, varaq 7, <https://sdgs.un.org/goals/goal13>

<sup>3</sup> Germanwatch, 2021, Global Climate Risk Index, 23-b, <https://germanwatch.org/en/crri>

O'zbekiston Respublikasi iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish bo'yicha qator tashabbuslarni ilgari surmoqda. 2018-yilda mamlakatimiz **Parij kelishuviga** qo'shildi va 2030-yilgacha bo'lgan milliy hissasini e'lon qildi. Bu hujjatda issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish kabi chora-tadbirlar belgilangan. Shuningdek, 2022-yilda qabul qilingan "Yashil O'zbekiston" strategiyasi asosida, **atmosfera havosining sifatini** yaxshilash, daraxt ekish, ekologik nazorat mexanizmlarini kuchaytirish kabi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu tashabbuslar iqlim o'zgarishining oldini olish bilan bir qatorda, barqaror rivojlanishning muhim tayanchi sifatida baholanmoqda<sup>4</sup>.

Iqlim o'zgarishiga qarshi kurash nafaqat texnik va iqtisodiy choralarni, balki kuchli **huquqiy mexanizmlarni** ham talab qiladi. Davlatning iqlim siyosati, milliy qonunchilik, xalqaro huquqiy majburiyatlar va ekologik boshqaruv instituti – bularning barchasi kompleks yondashuvni taqozo etadi.

### TADDIQOT METODLARI.

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish bo'yicha mavjud huquqiy mexanizmlarni chuqur tahlil qilish, ularning samaradorligini baholash va xalqaro huquqiy talablarga muvofiqligini o'rganish maqsad qilingan. Shu orqali mamlakatimizda ekologik barqarorlik va yashil iqtisodiyot sari yo'nalgan harakatlar yanada huquqiy asosda mustahkamlanishi zarurligi yoritiladi.

Ushbu maqolani yozishda bir nechta ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Asosiy maqsad – O'zbekistonda iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish bo'yicha mavjud huquqiy asoslarni chuqur o'rganish, ularni xalqaro tajriba bilan solishtirish va real ahvol bilan bog'liq holda tahlil qilishdan iborat bo'ldi.

Birinchidan, **normativ-huquqiy tahlil** usuliga murojaat qilindi. Bunda O'zbekiston Respublikasi "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuni, "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuni, "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining qarori, shuningdek Prezidentning "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risidagi farmonlari asosiy manba sifatida o'rganildi. Har bir hujjat alohida ko'rib chiqilib, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishdagi o'rni va ahamiyati aniqlashtirildi. Shuningdek, xalqaro darajadagi asosiy hujjat bo'lgan Parij kelishuvi ham ko'rib chiqildi. Bu yondashuv iqlim siyosatining qaysi qonunlar orqali tartibga solinayotganini tushunishga yordam berdi<sup>5</sup>.

Ikkinchidan, **solishtirma-huquqiy usul** qo'llandi. Ya'ni, boshqa mamlakatlar – masalan, Germaniya va Shvetsiya kabi davlatlarda iqlim o'zgarishiga qanday yondashilayotgani, ular qanday qonunlar qabul qilgani tahlil qilindi. Bu tajribalarni O'zbekiston qonunchiligi bilan taqqoslab ko'rish orqali, bizda qanday jihatlar yetishmayotgani yoki kuchli tomonlar nimaligini aniqlash imkonini berdi.

Uchinchidan, **statistik tahlil** orqali O'zbekistonda iqlim o'zgarishi qanday kechayotgani, ya'ni o'rtacha haroratning yillik o'zgarishi, yog'ingarchilik miqdori, qurg'oqchiliklar soni kabi ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Bu ma'lumotlar Hidrometeorologiya xizmati va Ekologiya

<sup>4</sup> Prezident Farmoni PF-16-son, 2022, "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida", <https://www.lex.uz/docs/-7243847>

<sup>5</sup> UNFCCC, O'zbekiston Respublikasi Milliy hissasi, 2021, <https://unfccc.int/NDCs>

vazirligining rasmiy hisobotlaridan olindi. Raqamlar asosida baho berish, qonunlar va amaliyot natijalarini solishtirish imkonini yaratdi.

To'rtinchidan, **tarixiy yondashuv** yordamida O'zbekistonda ekologik siyosatning qanday shakllanib borganiga e'tibor qaratildi. 1999-yilda ilk bor BMTga iqlim bo'yicha axborot topshirilishi, 2015-yilda Parij kelishuviga qo'shilish, so'nggi yillarda esa "Yashil O'zbekiston" kabi tashabbuslarning paydo bo'lishi, aslida bu masalaga tobora jiddiy yondashilayotganini ko'rsatadi.

Nihoyat, barcha metodlar natijalarini bir-biri bilan **taqqoslash va umumlashtirish (triangulyatsiya)** orqali tahlil qilindi. Bu yondashuv tadqiqotda xatoliklar ehtimolini kamaytiradi, natijalarni yanada aniqlashtiradi. Turli manbalar o'rtasida tafovutlar yoki mosliklar borligi aniqlanib, umumiy xulosalar chiqarishga zamin yaratildi. Yuqoridagi metodlarning barchasi bir-birini to'ldirib borishi natijasida normativ bazani tahlil qilish, xalqaro tajribani solishtirish, statistik ma'lumotlarga tayanish va tarixiy kontekstda ko'rib chiqish orqali mavzuga chuqurroq kirib borildi. Bu esa keyingi bo'limlarda aniq xulosalar va amaliy takliflar berish uchun mustahkam poydevor vazifasini o'tadi.

### **NATIJALAR.**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasini amalga oshirish va "yashil iqtisodiyot" yilida davlat dasturini ishlab chiqish bo'yicha farmoni mamlakatning iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida olib borayotgan siyosatini huquqiy jihatdan mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

Birinchidan, Vazirlar Mahkamasining qarorida iqlim o'zgarishiga qarshi kurash bo'yicha milliy maqsad va vazifalar tizimli ravishda belgilanib, ularning ijrosini ta'minlashga qaratilgan aniq chora-tadbirlar belgilangan. Jumladan, iqlim o'zgarishining oqibatlariga qarshi tezkor choralarni qabul qilish, iqlim o'zgarishiga qarshi ta'sir choralarni davlat siyosati va strategiyasiga kiritish hamda aholining va korxonalarning iqlim o'zgarishiga tayyorligini oshirish, xavfli iqlim hodisalaridan erta ogohlantirish tizimlarini rivojlantirish masalalari yuqori darajada nazoratga olinmoqda. Bu holat iqlim o'zgarishiga qarshi milliy siyosatning ilg'or xalqaro tajriba va standartlarga muvofiq shakllantirilishini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, atmosfera havosini muhofaza qilishga oid yuridik normalar O'zbekiston Respublikasining iqlim xavfsizligini ta'minlash va issiqxona gazlari hamda boshqa zararli chiqindilarni kamaytirish bo'yicha majburiyatlarini aniq belgilaydi. Xususan, 23-modda atmosfera havosiga zarar yetkazuvchi kashfiyotlar, sanoat namunalarini, texnika va texnologiyalarni joriy etishda iqlim o'zgarishining oldini olishga qaratilgan ekologik talablar qat'iy rioya qilinishini ta'minlashni nazarda tutadi. Bu mexanizm mamlakatda yangi texnologiyalarni kiritishda iqlimga salbiy ta'sirni kamaytirishga xizmat qiladi va davlatning iqlim o'zgarishiga qarshi kurashdagi qonunchilik bazasini mustahkamlaydi.

Shuningdek, 24-modda korxona va tashkilotlarning issiqxona gazlari, atmosfera havosini ifloslantiruvchi moddalar va boshqa zararli chiqindilarni kamaytirish bo'yicha majburiyatlarini batafsil tartibga soladi. Unda chiqindilarni tozalash, issiqxona gazlarining hisobini yuritish, ularning chiqarilishiga yo'l qo'ymaslik, chiqindilarni qayta ishlash, sanitariya-muhofaza zonalarini barpo etish va atmosfera havosining sifatiga oid iqlim xavfsizligi normativlariga rioya qilish majburiyatlari aniq ko'rsatilgan. Ushbu qonuniy mexanizmlar korxona va tashkilotlarni

iqlim o'zgarishini kamaytirishga yo'naltirilgan ekologik standartlarga qat'iy amal qilishga majbur qiladi hamda davlatning iqlim nazorati va boshqaruvini samarali amalga oshirishiga xizmat qiladi.

Uchinchi jihatdan, Prezident farmoni "O'zbekiston — 2030" strategiyasini amalga oshirishga qaratilgan bo'lib, bunda "yashil iqtisodiyot" tamoyillari asosida iqtisodiyotni iqlim o'zgarishiga moslashtirish, dekarbonizatsiya qilish, issiqxona gazlarini kamaytirish bo'yicha loyihalarni barqaror moliyalashtirish masalalari muhim o'rin tutadi. Farmon doirasida Parij bitimining talablariga muvofiq uglerod neytralligiga erishish bo'yicha uzoq muddatli strategiyaning ishlab chiqilishi va mamlakatning milliy belgilangan hissasi (NDC)ni e'lon qilishi rejalashtirilgan. Bu, o'z navbatida, O'zbekistonning xalqaro ekologik majburiyatlarini bajarishda va global iqlim o'zgarishi muammosiga qarshi kurashishda faol ishtirok etishini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, farmon "yashil texnologiyalar"ning mamlakatga joriy etilishi va iqlim o'zgarishiga moslashish bo'yicha xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga ham e'tibor qaratadi. Bu esa milliy iqtisodiyotning barqaror va raqobatbardoshligini oshirish, resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash uchun zamin yaratadi.

Tahlil qilingan normativ-huquqiy hujjatlar O'zbekiston Respublikasining iqlim o'zgarishi va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi siyosatini aniq, tizimli va samarali tashkil etishga yo'naltirilganligini ko'rsatadi. Ular mamlakatda iqlim o'zgarishiga qarshi kurash, atrof-muhitni muhofaza qilish, "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish bo'yicha milliy mexanizmlarni shakllantirishda mustahkam huquqiy asos yaratadi. Shu bilan birga, bu hujjatlar iqtisodiyotni ekologik barqarorlik va raqobatbardoshlik tamoyillari asosida rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi hamda xalqaro hamjamiyat oldidagi majburiyatlarning bajarilishini kafolatlaydi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, iqlim o'zgarishi va atrof-muhitni muhofaza qilishga oid qonunchilik tizimi O'zbekistonning uzoq muddatli barqaror rivojlanish strategiyasiga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, u o'zgaruvchan iqlim sharoitlariga moslashish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashda samarali vosita hisoblanadi. Shu bois, mamlakatda iqlim o'zgarishi va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha davlat siyosati hamda normativ-huquqiy hujjatlarni doimiy ravishda takomillashtirish va amaliyotga joriy etish muhimdir.

### **MUNOZARA.**

O'zbekiston Respublikasida iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish bo'yicha huquqiy mexanizmlar yaratilgan bo'lsa-da, ularning samaradorligi va xalqaro standartlarga qanchalik mos kelishi hozirgi davrda muhim baholash nuqtasidir. Ushbu bo'limda amaldagi huquqiy mexanizmlarning kuchli va zaif tomonlari, xalqaro talablar bilan uyg'unligi hamda mavjud jarayonlarning yetarliligi haqida fikr yuritiladi. Shu bilan birga, kelajakda qonunchilikni takomillashtirish va jamoatchilik faolligini oshirish bo'yicha takliflar ilgari suriladi.

Amaldagi huquqiy mexanizmlarning afzallik va zaif tomonlari

O'zbekiston iqlim o'zgarishi bilan kurashish sohasida ko'plab qonun va farmonlarni qabul qilib, milliy huquqiy bazani shakllantirdi. Bu esa ekologik barqarorlikni ta'minlashga asos yaratdi. Masalan, "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun va "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunlar sanoat chiqindilarini nazorat qilishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, hukumat tomonidan ishlab chiqilgan "Yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi va "Yashil makon" loyihasi kabi tashabbuslar ekologik holatni yaxshilashda amaliy ko'mak beradi. Ammo amaldagi qonunchilikda ayrim zaifliklar ham mavjud. Masalan, ba'zi qonunlar ijrosi yetarlicha nazorat qilinmaydi yoki jarimalar iqtisodiy jazo sifatida kam ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, ayrim hujjatlarda iqlimga moslashuv bo'yicha aniq mexanizmlar yetarlicha bayon qilinmagan, bu esa tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirishda qiyinchiliklar tug'diradi.

O'zbekiston Parij bitimini imzolab, o'zining NDCs (milliy belgilangan hissalar) doirasida iqlim gazlarini kamaytirish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun majburiyatlar oldi. Milliy qonunchilik shu xalqaro hujjatlarga muvofiq shakllantirilgan, ammo ularning to'liq bajarilishi hali ham to'liq ta'minlanmagan. Misol uchun, Parij kelishuvining talablariga ko'ra, barcha ishtirokchi davlatlar o'z strategiyalarini doimiy ravishda yangilab borishi kerak, biroq O'zbekiston qonunlari va amaliyotlari ba'zida zamonaviy global talablar bilan moslashishda kechikmoqda.

Shu bilan birga, iqlim o'zgarishiga qarshi xalqaro moliyaviy yordamlar va grantlardan foydalanishda ham qiyinchiliklar bor. Ko'pgina tashqi dasturlar bilan hamkorlik mavjud bo'lsa-da, moliyalashtirish hajmi va uni boshqarish tizimi aniq va shaffof emasligi sababli loyihalar samaradorligi pasayishi mumkin. O'zbekiston qurg'oqchilik, suv tanqisligi va issiqxona gazlari miqdorining oshishi kabi muammolarga duch kelmoqda. Shu bois iqlimga moslashuv bo'yicha amaliy ishlar muhim ahamiyatga ega. Mamlakatda suv resurslarini tejash, qishloq xo'jaligida samarador texnologiyalarni joriy etish va daraxt ekish kabi loyihalar amalga oshirilmoqda. Biroq, bu chora-tadbirlar hali keng ko'lamda emas va ularning barqaror ta'siri uchun yanada ko'proq ish qilinishi zarur. Xususan, qishloq joylarda aholining iqlim o'zgarishi haqida xabardorligini oshirish, mahalliy darajada ijtimoiy ishtirokni kuchaytirish bo'yicha kompleks yondashuv yo'q. Bu esa, o'z navbatida, barqaror rivojlanish yo'lida to'siq bo'lishi mumkin.

#### **TAKLIFLAR.**

Shu nuqtai nazardan, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda qonunchilikni yanada mustahkamlash zarur. Masalan, atrof-muhitni muhofaza qilish qonunlarida iqlimga moslashuv bo'yicha aniq chora-tadbirlar va monitoring mexanizmlari kengaytirilishi mumkin. Jarimalar tizimi kuchaytirilishi, ekologik standartlar yanada qat'iylashtirilishi lozim. Jamoatchilik ishtirokini oshirish ham muhimdir. Buning uchun aholining iqlim masalalari bo'yicha bilim darajasini oshirish, ekologik savodxonlikni kengaytirish uchun davlat va nodavlat tashkilotlar hamkorligi kuchaytirilishi kerak. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlarda, ommaviy axborot vositalarida ekologik mavzular ko'proq yoritilishi zarur. Moliyaviy mexanizmlarni yanada rivojlantirish ham dolzarb vazifa hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, barqaror energiya manbalarini rivojlantirish uchun soliq imtiyozlari joriy etish, iqlimga mos loyihalarga davlat grantlarini ko'paytirish lozim. Undan tashqari, O'zbekiston iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda yaxshi asoslar yaratgan bo'lsa-da, ularni to'liq va samarali amalga oshirish uchun qonunchilikni takomillashtirish, jamoatchilik faoliyatini kuchaytirish va moliyaviy resurslarni kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar zarur.

#### **XULOSA.**

O'zbekiston Respublikasida iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmlari barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimiz iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini kamaytirish va unga moslashish uchun xalqaro va milliy darajada ko'plab qadamlar qo'ymoqda. Xususan, 2030-yilgacha issiqxona gazlari tashlamalarini 2010-yilga nisbatan 35 foizga kamaytirish bo'yicha maqsadlar aniq belgilangan va ular amalga oshirilmoqda. Bu – nafaqat xalqaro majburiyatlarimizga rioya qilish, balki atrof-muhitni muhofaza qilish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladigan asosiy vazifa hisoblanadi.

Xalqaro hamkorlik ham O'zbekistonning iqlim o'zgarishiga qarshi kurashdagi strategiyasining ajralmas qismi hisoblanadi. Mamlakat 27 ta ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi sohasidagi xalqaro ko'p tomonlama shartnomalar a'zo bo'lib, Parij kelishuvi doirasida o'z majburiyatlarini yangilab, iqlim dasturlarini moliyalashtirish va ekologik toza texnologiyalarni rivojlantirishga katta e'tibor bermoqda. Bu esa O'zbekistonning global ekologik jarayonlarda faol ishtirokini ta'minlaydi. Bundan tashqari, mamlakatdagi iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashish uchun fan va texnologiyalarga asoslangan tizimli yondashuvlarni kuchaytirish zarur. Ayni paytda qishloq xo'jaligi, suv resurslarini boshqarish va sanoat sohalarida samarali boshqaruv mexanizmlari yetarlicha rivojlanmaganligi, shaffoflik va tarmoqlararo muvofiqlashtirishda ayrim kamchiliklar mavjudligi aniqlangan. Shu sababli, kelajakda ushbu sohalarida yanada chuqurroq islohotlar va integratsiyalashgan yondashuvlar talab etiladi. Umuman olganda, O'zbekiston iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda keng qamrovli huquqiy asoslarni yaratib, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun muhim qadamlarni qo'yimoqda. Biroq, mavjud iqlim xavflarini samarali bartaraf etish uchun davlat siyosatini takomillashtirish, ilm-fan va amaliyotning uyg'unligini oshirish, hamda aholining ongini yanada kuchaytirish zarur. Bu borada amalga oshirilayotgan milliy va xalqaro dasturlar mamlakatimizning ekologik barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu tariqa, iqlim o'zgarishining oldini olish va unga moslashish choralari nafaqat tabiatni asrash, balki iqtisodiyot va jamiyatning barqarorligini saqlashga ham xizmat qiladi. O'zbekistonning bu boradagi sa'y-harakatlari barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida muhim strategik ahamiyatga ega bo'lib, kelajak avlodlarga sog'lom va xavfsiz yashash muhitini taqdim etishga qaratilgan.

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi 353-I-sonli Qonuni, <https://www.lex.uz/docs/-55561?otherlang=1>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risidagi 16-sonli Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-7369703>
3. O'zbekiston Respublikasi 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi 83-sonli Vazirlar Mahkamasining qarori <https://lex.uz/docs/-5870397>
4. X.Asilbekova, Z.Yarullina, M.Plotsen, X.Sherimbetov, "Atrof-muhit holati to'g'risida milliy ma'ruza: O'zbekiston" Dekabr 2023
5. United Nations, Paris Agreement, 2015, <https://unfccc.int/process-and-meetings/the-paris-agreement>.
6. German Climate Protection Act, 2019, <https://www.bmu.de/en/laws-regulations>.
7. O'zbekiston Respublikasi Gidrometeorologiya xizmati markazi hisobotlari, 2023-yil, <https://uzhydromet.uz>.